

ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI IQTISODIY G'OYALAR VA ULARNING BUGUNGI KUNDAGI DOLZARBLIGI

Rajabova Malika Nuriddin qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Tel: +998915558182

malikarajabova00gmail.com


Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk mutaffakkir Alisher Navoiyning iqtisodiy-ijtimoiy qarashlari keltirilgan. U o'z asarlarida halollik va adolatni muhim qadriyatlar sifatida ko'rsatgan. Hukmdor davlatni mukammal ishlab chiqilgan qonun-qoidalarga asoslanib birlashtirib turishi kerakligi, har doim qonun ustuvorligi ta'minlanishi shart ekanligi, oddiy fuqarolar ham o'z burch va vazifalarini anglagan holda hayot kechirishi zarurligini Navoiy deyarli barcha iqtisodiy-ijtimoiy g'oyalar aks etgan asarlarida ta'kidlab o'tadi. Uning davlat arbobi sifatida faoliyatidan so'zlovchi "Vaqfiya" asari buning yaqqol misolidir. Nafaqat mamlakat rahbarlarining balki har bir korxona rahbarlarining mas'uliyatni his etishi va o'z ishini sidqi dildan bajarishi, mamlakatimizda milliy va xalqaro eksport va importni rivojlantirish hozirgi kunda ham iqtisodiyotning kaliti hisoblanadi.

Kalit so'zlar: adolatli boshqaruv, rahbar, oshkoralik, tijorat va savdo-sotiq, halollik, iqtisodiy rivojlanish, jahon bozori.

Abstract: This article presents the economic and social views of the great thinker Alisher Navoi. He showed honesty and justice as important values in his works. The fact that the ruler should unite the state based on perfectly developed laws, that the rule of law must always be ensured, and that ordinary citizens should also live with an understanding of their duties and responsibilities are stated in Alisher Navoi's every work, which reflects economic and social ideas. His work "Vaqfiya" speaking about his career as a statesman are clear example of this. Not only the leaders of the country, but also the leaders of every enterprise should feel responsible and perform their work sincerely. This specific idea and the development of national and international export and import in our country are still the key to the economy.

Keywords: fair management, leadership, transparency, commerce and trade, honesty, economic development, world market.


Adabiyot iqtisodiy tizimdagi insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tushunishga yordam beradi, bu esa ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishda muhimdir. O'zbek adabiyoti tarixida har bir yozuvchi o'z asarlari orqali jamiyatdagi qaysidir masalani ochiqlashga, muammolarga yechim topishga harakat qilgan. Buyuk shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy ham butun umrini ilm-ma'rifat, adabiyot va xalq farovonligiga bag'ishlagan, ezgu amallari va ulug'vor ijodi bilan o'z nomini tarix sahifalariga muhrlagan. Agar



Navoiy hayot yo'liga ko'z tashlanadigan bo'lsa, u o'z asarlari bilan xalqni ma'rifatga olib chiqishdan tashqari, davlat xizmati va boshqaruvida ham faol ishtirok etgani namoyon bo'ladi. U 1469-1472 yillarda muhrdor, 1472-1476 yillarda esa vazir sifatida xizmat qilgan. Husayn Boyqaro saroyida yuksak lavozimlarda faoliyat olib borgan Navoiy, o'z maslahatlari bilan mamlakatda tinchlik va madaniyat rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan [1]. U o'zining "Vaqfiya", "Hiloliya" va "Mahbub ul-Qulub" asarlarida o'zining davlat arbobi sifatidagi faoliyati, vaqf qilgan yerlari va xayriya ishlari, davlat boshqaruviga oid g'oyalari va siyosiy qarashlari haqida ma'lumot bergan. U har doim insonlarni ezgulikka, birovning haqqidan qo'rqishga va adolat ila qaror qabul qilishga undagan. Asarlarini chuqurroq o'rganish va tahlil qilish orqali xatto bugun ham o'z dolzarbligini saqlab turgan iqtisodiy muammolarga yechimlarni uchratish mumkin. Uning iqtisodiy qarashlari asarlarida bilvosita aks etgan bo'lib, ular adolatli boshqaruv, mehnatsevarlik, boylik va kambag'allik o'rtasidagi muvozanat hamda jamiyat taraqqiyotiga oid fikrlarni o'z ichiga oladi. Navoiy jamiyat taraqqiyotining asosi adolatli boshqaruv ekanini ta'kidlagan. U hukmdorlarga halol iqtisodiy siyosat yuritish, soliqlarni haddan tashqari oshirmaslik va xalq tinchligini ta'minlash haqida maslahatlar bergan. "Mahbub ul-Qulub" [2] asarida u davlat rahbarining naqadar muhim shaxs ekanligini, rahbarning oqilligi baxtli xalqni, farovon hayotni anglatishini go'zal bayon etadi. O'z navbatida rahbarlik mas'uliyatli daraja ekanligini va har bir rahbar o'z ish faoliyatida buni his etib turishi, o'z xalqiga ya'ni xodimlariga e'tibor va ishonch bilan munosabat bildirishi, ularning farovonligini ta'minlashi kerakligini asarlarni mutolaa qilish orqali o'rganishimiz mumkin.

Xususan, u yuqorida keltirilgan asarida quyidagicha yozadi:

*Ulus podshohi-yu darveshvasht,
Anga shohliqdin kelib faqr xush,
Jahondorlarg'a siperh intiboh,
Vale ahli faqr ollida xoki roh,
Jahon mulki ollinda xoshokcha,
Vale bir ko'ngul mulki aflokcha.*



Ushbu misralarning boshida kelgan podshoh va darvesh tushunchalari asl ma'noda birbiriga qarama-qarshi bo'lsada, Navoiy bu yerda podshohni darveshning holatiga solishtiryapti. Ya'ni u shunchaki moddiy boyliklarni boshqaruvchigina emas, balki darvesh kabi ruhiy poklikni, ezgulikni izlaydigan kishi kabidir. Keyingi qatorlarda esa u davlat boshqaruvchilarining *ahli faqr* ya'ni jamiyatdagi faqr, ergashuvchan aholining farovonligini ta'minlashi, xalqning xulqi rahbarning yuqori fazilatlari bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi. Dunyo mulki va boyliklari vaqtinchalik ekanini ta'kidlab, ular *xoshokcha* ya'ni yashirin, noaniq tarzda taqsimlanishini aytadi. Ko'ngil mulki, boshqacha qilib aytganda ruhiy boylik aflokcha, yuqori va ulkan bo'lishini anglatib, hukmdorlarga ma'naviy yuksaklik, adolatli boshqaruv va iqtisodiy farovonlikni ta'minlashi kerakligini uqtiradi. Aslini olganda, adolat barcha zamonlarda ham muhim ahamiyat kasb etgan va buning isboti sifatida har bir davrda yashab, ijod qilgan olim-u mutaffakirlar, iqtisodchilarning u haqidagi fikrlarini keltirish mumkin. Miloddan avvalgi IV asrda

yozilgan, qadimgi Hindistondagi uy-joy xo'jaligi, ijtimoiy tuzum va iqtisodiyot haqida so'zlovchi "Artxashastra" asari misol qilinib olinadigan bo'lsa, undagi ba'zi ayyor amaldorlar davlat xazinasidan o'g'irlik qilishining 40 xil usuli ko'rsatib berilganligi e'tiborga molik. Xususan, asarda "Suvda suzib yurgan baliq, o'sha suvdan ichayaptimi, yo'qmi – bilib bo'lmaganidek, -ishga biriktirilgan amaldor mulkni o'zlashtiryaptimi, yo'qmi – aniqlab bo'lmaydi" deyiladi. [3] Shu sababdan amaldorlar faoliyatini doimiy kuzatib borish va iloji boricha ularni vaqti-vaqti bilan o'zgartirib turish tavsiya etiladi. Alisher Navoiyning ham, qadimgi davr olimlarining ham halollik va adolatni bosh masala sifatida ko'rishi bejizga emas aslida. Inson bolasi hayoti davomida ochlik va suvsizlik, yaqinlarini yo'qotish, tushkunlikka tushib qolish kabi qiyinchiliklarni yengishi, chidashi mumkin, lekin u hech qachon adolatsizlikni ko'tara olmaydi. Bu esa adolatsizlik hukmron mamlakat hech vaqt jahon sahnalariga chiqa olmasligini, sog'lom raqobat yurita olmasligini anglatadi. Iqtisodiy rivojlanishning bu ikki muhim omili: adolat va sog'lom raqobat, o'z-o'zidan mamlakatdagi kambag'allik darajasiga ham ta'sir o'tkazadi. Zero iqtisodiyotdagi ijobiy o'sish jamiyatdagi kambag'allikning kamayishiga olib keladi. Bu so'zlar isboti esa muhtaram prezidentimiz nutqida o'z aksini topadi, "Siyosiy mustaqillik zamirida iqtisodiy mustaqillik yotadi ... so'nggi olti yil ichida iqtisodiyot hajmi 1.5 marta ko'proqqa o'sgan bo'lsa, kambag'allik darajasi 2 baravardan ortiqroqqa kamaytirildi". [4] Keltirilgan raqamlarni kelgusida yanada oshirish, xalqimiz farovonligini ta'minlash uchun esa biz hozirdan yosh avlodni adolatparlik, ezgulik ruhida tarbiyalamog'imiz zarur. Va bu harakat birinchi navbatda o'quvchilarga maktab yoshidan singdirila boshlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunchaki so'zlar orqali o'quvchilarni ma'lum bir tarbiya ostida ulg'aytirish mushkul, aksincha ularni shu muhitda tarbiya olishi uchun sharoit yaratish kerak. Ya'ni har bir o'qituvchi maktabda avvalambor o'zi adolatli bo'lishi va buni amalda ko'rsatishi kerak. Boshlang'ich sinflarda tahsil olayotgan o'quvchilar sinfdoshlaridan "tezroq" yoki "yaxshiroq" o'qish uchun bolalarcha ochiqchasiga raqobatlashsa, o'tish davridagi yuqori sinf o'quvchilarining adolat haqidagi tushunchasi ustozning birgina xatti-harakati bilan chilparchin bo'lishi mumkin. O'qituvchining o'z tanishining yoxud boshqa bir fan o'qituvchisining farzandini nohaqlik bilan yuqori baholashi, unga nisbatan boshqacha munosabatda bo'lishi atrofda o'quvchilarning adolat to'g'risidagi tushunchasi butunlay o'zgartirib yuborishi mumkin. Bu esa bora-bora yoshlarning noto'g'ri qarorlar qabul qilishiga, o'z manfaatlarini hamma narsadan ustun qo'yishiga sabab bo'ladi. Undan ham yomoni, shu holatlarga guvoh bo'layotgan, undan o'zlariga xulosa chiqarishga urinayotgan yoshlarning qanchadan-qanchasi kelajakda xalq uchun xizmat qiladigan, uning og'irini yengil qiladigan, davlat boshqaruvidagi yoki turli korxonalaridagi rahbar lavozimlariga ishga keladi va faoliyat yuritadi. Shunday ekan, kelajakda rivojlangan mamlakatlar qatorida turishimiz, ziyoli va adolatli kadrlar yetishtirishimiz, muqaddas yurtimizni jahon sahnasiga yorug' yuz bilan olib chiqishimiz uchun hozirdan adolatli tizimni yo'lga qo'yishimiz shart. Quvonarlisi, muhtaram prezidentimiz "O'zbekiston-2030" strategiyasi, eng birinchi "Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish" maqsadiga, ta'lim tizimidagi islohotlarni kirgizganligidir. Unga ko'ra, 1000 nafar tarbiyachi va

o'qituvchilarni xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish va stajirovkaga yuborish; pedagog xodimlarning o'rtacha ish haqqini 2 barobarga oshirish; 500 000 nafar maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim muassasalari xodimlarining malakasini uzluksiz oshirish belgilab qo'yilgan. [5] Bu ham ustoz va murabbiylarni o'z ishini yanada ko'proq mas'uliyat va rag'bat bilan olib borishiga turtki bo'ladi, albatta.

Turli podshohlarni yana bir bor zikr qilar ekan, Navoiy ularni davlat boshqarishlari va o'z aholisi haqida qanchalik qayg'urishlariga qarab bir necha turlarga ajratadi. Ba'zi rahbarlar ko'prik kabi xizmat qilib, xalqning o'g'rlklarini, qiyinchiliklarini ko'taradi, ularning botqoqqa cho'kib ketishlaridan saqlab turadi. Yana boshqa bir tur vakillari panoh va oromgohga qiyoslanadi, zero bunday joylar odamlar-u hayvonlarni osoyishtalik bilan ta'minlaydi. Quyosh kabi ta'rifga ega bo'lgan podshohlar esa olamga, vodiylarga yoru'glik sochgani, quvonch olib kelgani va mol'-ko'llikni ta'minlagani uchun ushbu sifatga ega chiqishgan bo'lsa ne ajab. Ba'zi rahbarlar esa bo'z kiyizga qiyoslanganlar. Chunki haqiqatdan ham ba'zi rahbar kishilar bo'z kiyizdek, havo yoki yengil narsadek, bo'lishadi. Yomon holatlarni ham yaxshilarini ham o'zlariga tekkizishmaydi, va e'tibor ham berishmaydi, kim qayerga tortsa shu tomonga burilib ketaverishadi. Bunday holatni tasvirlab, u quyidagi bayni bitgan:

To qamardur, otig'a na'l o'lsun,

To quyoshdir, boshig'a la'l o'lsun!

Ya'ni yomonlik, yovuzlikni kasb etganlarga, oddiy xalqqa zulm qiladiganlarga la'nat va yomonlik bo'lishi, quyosh kabi issiqlik, mehr taratuvchilarga esa yaxshilik, yuksaklik va o'zlari kabi yorug'lik nasib etishi ta'kidlanmoqda. Haqiqiy rahbar, davlat podshohi aslida qanday fazilatlariga ega bo'lishi kerakligi haqida u ayniqsa Husayn Boyqaroning taxtga kelishiga bag'ishlangan "Hiloliya" asarida batafsil to'xtalgan. Asar nomining "hilol" ya'ni uch kunlik to'lin oy kabi nomlanishini Husayn Boyqaroning zulmatni yoritish maqsadida mamlakat taxtiga kelishi bilan bog'liq. Navoiy podshohni faqat ko'klarga ko'tarish bilan cheklanib qolmay, muhim ijtimoiy-iqtisodiy g'oyalarni, xususan, mamlakat iqtisodiyotini yaxshilash, markazlashtirish, xalq farovonligini ta'minlash kabilarni ham o'rta tashlaydi. Hukmdorni ulug'lash esa bir taktik vazifasini o'taydi. Xuddi shu jarayondan ham dolzarb bir dars o'rganilishi mumkin. Istalgan inson biror masala bo'yicha boshqa bir vakilga murojaat qilar ekan, eng avvalo o'zi duch kelayotgan muammolar va qiyinchiliklarni bayon qilmasdan, avval o'z hududida olib borilayotgan ijobiy o'zgarishlar va tashabbuslar haqida fikr yuritishi, atrofiga bir nazar solishi darkor. Olib borilayotgan tamoyillar oddiy xalqqa qay darajada foyda keltirayotgani, fuqarolar og'irini yengil qilayotgani haqida so'zni boshlash esa murojaatni qabul qilayotgan xodimda murojaatchiga nisbatan iliq taassurot qoldiradi va shu orqali ko'proq e'tiborga sazovor bo'ladi. Lekin bu masul xodimlarga tilyog'lamachilik qilish, ularni osmon-u o'zlarini yer bilish kerak degani emas. Shunchaki dono xalqimiz aytganidek "Yaxshi so'z jon ozig'i" ekanligini yodda saqlamoq lozim.

Bundan tashqari, Alisher Navoiy "Mahbub ul-Qulub" asarida iqtisodiyotning muhim omillaridan biri bo'lgan tijorat va savdo-sotiq haqida ham alohida so'z yuritadi. Ushbu sohalarni kasb qilganlar haqida "Tijorat ahli", "Shaharlarda olib sotquvchilar" va "Bozor


kosiblari” zikrida nomli bo’limlarda batafsil to’xtaladi. Tijorat bilan shug’ullanuvchi kishilar aql-idrokli bo’lishi, dunyo ajoyibotu g’aroyibotlaridan xabardor bo’lishlari bilan ajralib turadi. Ular haqiqiy tavakkalchi va qat’iy bo’lishlari, ulkan dengizlarga kema solib, uning tubidan durlar topishdan qo’rqmasliklari zarur ekani aytiladi. Savdogar va tijoratchilar qanchalik ko’p mol-u dunyo orttirmasin, agar ularning xulq-atvori yomon bo’lsa, aqli, tushunishi va to’g’ri yo’lni tanlash qobiliyati yo’q bo’lsa, u shuncha boylik bilan ham hech qanday yuksaklikka erisha olmasligini quyidagi baytlar bilan ifodalaydi:

Mundoq kishida yo’q xirad va hushdin nishon,

Bilgil gado erur Xojai Jahon.

Ya’ni u xatto dunyoning egasi, shoh yoki ulug’ kishi bo’lsa-yu, haqiqiy aql va hikmati bo’lmasa uning hech qanday qiymati bo’lmaydi, balki uning aqli, hikmati va axloqi uni qadrli qiladi. Ta’kidlash joizki, Navoiy savdogarlarni va tijoratchilarni ikki turga ajratadi: chet bilan aloqa o’rnatib, boshqa mamlakatlar bilan ayriboshlash faoliyatini olib boruvchilar va mamlakat ichkarisida savdo qilguvchilar. Chet bilan savdo-sotiq olib boruvchi savdogarlarga Navoiy ijobiy qaraydi va ularning faoliyatiga hayrixohlik bildiradi. Bozordagi savdogarlarga, ya’ni olib sotarlarga esa tanqidiy ko’z bilan qaraydi. Navoiyning fikricha ikkinchi tur savdogarlar faqat o’z manfaatini o’ylagani, arzonga olgan molini qimmat narxga sotish orqali daromadini o’stirishga uringani va bu orqali xalqni qiyin ahvolga solgani sababli tanqidga loyiqdirlar. Oddiy dehqon tun-u kun mehnat qilib mahsulot yetishtiradi, uni bozorga olib kelib boshqa savdogarga arzonga pullaydi. Savdogar esa molni olib ustiga yana narx qo’shib xaridorlarga sotadi, boshqacha qilib aytganda bu jarayon “pul-tovar-pul” kabi kechadi. Shaharda olib sotuvchilar ham bozordagi kosiblar ham har soniya halollik va egrilik o’rtasida arosatda turishadi. Nima bo’lgan taqdirda ham bu ikkala kasb egalari doim sodiq va to’g’ri so’z bo’lishlari, topadigan foydalari halol bo’lishi, va shu foydadan jamiyat rijovi, xalq farovonligi uchun ehsonlar ajratib, zakotlar berishi kerakligi asarda yaqqol ko’rinib turadi. Umuman olganda Navoiy savdogarlar harakatining muhim ekanligini yaxshi tushungan, ya’ni turli xil kasb egalari orasida tovar ayriboshlash jarayoni kechmasa, ulardan hech biri faoliyat olib borolmasligini bilgan. Dehqon mehnat qilib, yerga ishlov berib, qo’sh haydab, mahsulot yetishtirib uni xalqqa tortiq etadi. Xalq undan bahramand bo’lib, boshqa kasb vakillari, o’z mahsulotlari taklif etishadi, hunarmandlar ish qurollari, nonvoylar shirmoy nonlar kabi. Bundan ko’rinib turibdiki, Navoiy ishlab chiqarishdagi eng muhim omil bu dehqon ya’ni ishchi kuchi deb hisoblagan [6]. O’zi ishlab chiqarish sohasi bilan shug’ullanmasa ham, o’z aqliy va ijodiy mehnati orqali xalq uchun kerak bo’lgan jarayonlar haqida fikr yurita olagani, uning ishlab chiqarishning dastlabki formalaridan birini to’g’ri tushunganligidan dalolat beradi.

Yevropada mamlakatlararo savdo-sotiqqa e’tibor ayniqsa XVI asrdan XVIII yuqori bo’ldi. Bu davr tarixda merkantilizm g’oyalari rivojlangan davr sifatida tilga olinadi. Italyanchadan tarjima qilinganda “merkante” so’zi “savdogar” degan ma’noni anglatadi, va bu davr ham asosan ikkiga, dastlabki va keyingi merkantilizmga ajratiladi. Bu davr g’oyalari U. Stafford (Angliya), G. Skaruffi (Italiya) va Tomas Men ismlari bilan



bevosita bog'liq, chunki aynan shu insonlar bu iqtisodiy maktabning eng oldi vakillaridan hisoblanishgan. Merkantilizmning eng asosiy g'oyasi mamlakatning boy yoki boy emasligini u egalik qiladigan oltin va kumushlar, qimmatbaho zeb-ziynatlar bilan baholashda bo'lgan. Dastlabki merkantilistlar eksport qilinadigan mahsulotlarni qimmat narxlash, ya'ni tashqi savdo, import qilinadiganlarini esa keskin kamaytirishni targ'ib qilganlar. Shu orqali mamlakatdagi boyliklarni saqlab qolish, yanada ko'paytirish mumkin deb ishonishgan. Bunga esa eng asosiy sabab ularning dunyoda resurslar chegaralanganligi, boshqacha qilib aytganda, qo'shni mamlakatlarning kambag'al bo'lishi orqali o'zlari yuksalishlari mumkin ekanligiga ishonishgani bo'lgan. Keyingi merkantilistlar ham ilgarigidek pulning qimmatini oltin va kumushlar bilan baholashni saqlab qolgan holda, endi pulning jamg'arish funksiyasiga emas balki muomala funksiyasiga e'tibor qarata boshladilar. Bu endi ular importni haddan ziyod chegarlamasdan, eksportni yanada kuchaytirishga, mahsulotlarni arzonroqqa bo'lsada qo'shni mamlakatlarga sotib, jahon bozorini egallamoqchi bo'lishganini anglatadi. Merkantilizmning gullab-yashnashda davom etmaganligining asosiy sababi ham aynan shunda, ya'ni ular pul taklifining ko'payishi unga bo'lgan talabni oshirgach, savdoni rag'batlantiradi deb bir tomonlama fikrlaganliklarida. Balki ular ham o'zlaridan bir asr oldin hayot kechirgan sharq mutaffakkirlari singari birovni talon-taroj qilish orqali boylik yig'ishdan saqlanish kerakligini ustuvor vazifa singari ko'rishganida rivojlanishlari ancha tez va oson kechardi ehtimol.

Alisher Navoiy boylikni ikki yo'l bilan topish mumkin deb hisoblagan. Birinchisi vaqt va kuch sarflab, mehnat qilib, halol peshonateri bilan davlat yig'ish bo'lsa, ikkinchi yo'l o'g'rilik, ta'magirlik va zo'rlik bilan orttirilgan boylik bo'lgan. U birinchi yo'l bilan topilgan daromadni ma'qullagan va aslini olganda u insonlarning yaxshi daromad topishiga ijobiy qaragan, zero insofli boylarning ko'payishi jamiyat rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishiga ishongan. O'zining "Vaqfiya" asarida u o'zining yerlaridan olingan daromadning qay tartibda taqsimlangani, o'z harajatlari, oila a'zolari uchun harajatlar va xalq manfaati yo'lga qanday sarflagani haqida yozadi. Bu asarni o'z navbatida ikki qismga bo'lish mumkin:

1. Navoiyning Sulton Husayn Boyqaro saroyidagi davlat arbobi sifatidagi faoliyati aks etgan o'rinlar.
2. Navoiyning xayriya ishlari va vaqf qilib qoldirilgan mulk yerlari, vaqf joylardagi idora usuli, xizmat uchun belgilangan lavozimlar, tayin etilgan maosh, o'rnatilgan tartib-qoidalar bayoni. [7]

Alisher Navoiy xalq farovonligi haqida doim qayg'urgan, davlat pulining bir tiyinigam ham xiyonat qilmaslikka, aksincha o'z hisobidan fuqarolarning yaxshi sharoitlarga ega bo'lishi uchun harakat qilgan. Mamlakatda qurilgan xalqqa xizmat qiluvchi binolarni foydalanishga topshiriboq, ular haqida unutib qo'yib, ularning faoliyatini o'z holiga tashlab qo'yishga botina olmagan. Har bir masjid, madrasa va shifoxonalarni zarur jihozlar, maxsus kasb egalari bilan ta'minlashga ham o'zi boshchilik qilib, inshootlarning ishlash darajasini nazorat qilib turgan. Navoiy o'zi singari boshqalarning ham xalq haqida xavotirlanishini, bir oz bo'lsa-da yon-atrofidagilarga e'tibor berib, yordam

berishini xohlaydi. *“Agarchi daryog’a qatra madadkorlig’idin sude va yadi bayzog’a zarra havodorlig’idin maqsude mumkin va mutasavvar ermas, ammo ul qadar xizmatdakim, xastag’a quvvat erdi va ul miqdor mulozamatdakim, bu shikastag’a tengri toqat berdi, jonsiporlik rasmin unutmamim va ehmol va tasohul ravo tutmamim”* [8] deb yozadi u. Ma’nosi kichik yordamlar ham hayotda muhim rol o’ynaydi va shu yordamlar orqali kimlargadir kuch berish mumkin. Har bir inson o’ziga berilgan kuch-quvvatni boshqa birovni qo’llab-quvvatlash yo’lida sarflashi orqali ijobiy o’zgarishlarga hissa qo’shadi deyilmoqda. Yerga egalik qilish ayniqsa sohibqiron bobomiz Amir Temur davrida yuqori cho’qqilarga chiqdi. Yer egaligining 5 ta asosiy ko’rinishlaridan biri ham “Vaqq yerlari” edi aslida. Bu turdagi yerlarga masjid, madrasa, xonaqoh, qabriston va shu singari joylarga doir yerlar kirgan. [9] Vaqqda yer, suv, bozor, qul, pullar va boshqalar in’om etilardi. Vaqq mulkidan olingan hosilning o’ndan biri davlatga berilgan. Sohibqiron bobomiz mamlakatdagi buyuk olimlar, donishmand va ilimli insonlarni moddiy va ma’naviy rag’batlantirib turgan. Agar ular vafot etishsa, ularning qabrlari va ularning atrofini obod qilib, mozarlarni kerakli narsalar, chiroq va gilam kabi jihozlar bilan ta’minlab turishni buyurgan.

Shunisi ma’lumki, o’tmishda ham hozirgi jadal sur’atda o’sib borayotgan hayotimizda ham, iqtisodiyot rivoji uchun rahbarlarning adolatli bo’lishi muhimdir, chunki bu ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi. Rahbarlar adolatli qarorlar qabul qilsa, iqtisodiy faoliyatni samarali boshqarish, investitsiyalarni jalb qilish va korporativ boshqaruvni yaxshilash uchun yo’l ochiladi. Adolatli rahbarlar ishchilar va investorlar o’rtasida ishonchni mustahkamlab, iqtisodiy o’sishni rag’batlantiradi. Shu bilan birga, adolatli boshqaruv tizimi korrupsiyani kamaytiradi va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi. [10] Tijorat ham, o’z navbatida, mamlakat iqtisodiyotining ajralmas bo’lagi hisoblanadi, chunki tijorat va savdo-sotiq resurlarni taqsimlash, iste’molchilar ehtoyojlarini qondirish va barqaror o’sishni nazorat qilish uchun zarur bo’lgan kuchdir. Ushbu qudratli kuchni boshqarish uchun esa halol yo’lni tutmoq juda zarur, faqat shu orqali milliy va jahon bozorida ham ishonchni mustahkamlab, savdo hajmini oshirish mumkin. Bundan tashqari, tijorat yurituvchi tadbirkorlar ijtimoiy mas’uliyatni zimmlariga olganlarida, ular jamiyat hayotiga ijobiy ta’sir ko’rsatib, iqtisodiy barqarorlik va taraqqiyotga hissa qo’shadilar. Bunday yondashuv, aholining turmush darajasini oshirish, yangi ish o’rinlarini yaratish, ta’lim va sog’liqni saqlash sohalarini qo’llab-quvvatlash orqali jamiyatning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu tariqa, mas’uliyatli tadbirkorlar nafaqat korxona manfaatlarini, balki butun jamiyatning uzoq muddatli barqaror taraqqiyotini ta’minlaydi. [11]

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, buyuk mutaffakkir Alisher Navoiyning davlat boshqaruvidagi adolat va shaffoflik to’g’risidagi fikrlari bugungi kunda ham ahamiyatli. Nafaqat bir mamlakat boshqaruvi, balki har bir rahbar o’z ish faoliyatida, korxonasi, yoki ish joyida doimo mas’uliyatni his qilishi, halol va oshkoralik bilan qarorlar qabul qilishi va o’z xodimlari haqida qayg’urishi uning eng ustuvor vazifasiga aylanmog’i lozim. Bundan tashqari, Navoiyning tijorat va savdo masalalarini mukammal yoritib, savdogarlik ishini ma’qullab, tovmachilikni qattiq tanqid qilgani [12] ham biz uchun dars

bo'lishi, mamlakatimizning iqtisodiy rivoji uchun bu jihatga ham alohida e'tibor qaratmog'imiz darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://oz.sputniknews.uz/20190208/alisher-navoiy-hayoti-va-ijod-yoli-22240204.html?utm_source=perplexity
2. Mahbub ul-Qulub. Alisher Navoiy. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2018. – 172 b.
3. Артхашастра, или Наука политики. М-Л.: Издательство АН СССР, 1959
4. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev O'zbekiston mustaqilligining 32 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan.
5. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi farmoni.
6. Исломов А., Эгамов Э. И 37 Иқтисодий таълимотлар тарихи: олий уқув юртлари талабалари учун уқув кулланма.— Т.: «Ўзбекистон», 2003,—216 б.
7. „VAQFIYA“ ASARIDA ALISHER NAVOIYNING IJTIMOIIY FAOLIYATI BILAN BOG'LIQ MASALALAR Iroda Narimmatova, Nafisa Yuldasheva
8. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 14-жилд. – Тошкент: Фан, 1998.
9. Temur tuzuklari. / A. Temur. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 184 b.
10. Iqtisodiy rivojlanishni sohasida davlat siyosatini amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh. Mirziyoyev farmoni
11. Sh. Ergashxodjayeva, M. Yusupova, Z. Hakimov, M. Abdurahmonova – To'varlar va xizmatlar marketinggi. Toshkent 2019.
12. https://www.bukhari.uz/?p=12954&utm_source=perplexity